

Muyassar Ibrohimova

O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

Rezyume: Turkiy xalqlar adabiyotida dunyo obrazining ilk ko‘rinishlari, *dunyo tasvirining ahamiyati, badiiy tasvir san’ati haqida so‘z boradi.*

Tayanch so‘z va iboralar: *yirtinchi, gizlamoq, ajun, paremiya, dunyo.*

Резюме: *В литературе тюркских народов говорится о первых проявлениях образа мира, значении образа мира, искусстве художественного изображения.*

Ключевые слова и выражения: *четвертое, хидэ, аджун, паремия, мир.*

Resume: *The literature of the Turkic peoples talks about the first manifestations of the image of the world, the importance of the image of the world, and the art of artistic representation.*

Key words and word expressions: *fourth, hide, ajun, paremia, world.*

Sharq xalqlari adabiyotida dunyo obrazi shakllanish tarixi, ma’no qamrovi, ifoda tarzi kabilarga ko‘ra umumiy jihatlariga ega bo‘lsa ham, o‘zbek mumtoz adabiyotida yaratilgan ijod namunalari turkiy xalqlar ijtimoiy-maishiy turmush madaniyati, og‘zaki ijodi va adabiyoti bilan bevosita bog‘liqdir. Dastlab real, moddiy borliq ma’nosini anglatgan dunyo – adabiyotning badiiy-estetik tamoyillari ta’sirida o‘ziga xos poetik obrazga aylangan. Poetik tafakkur imkoniyatlari asosida inson ruhiy-ma’naviy olami, orzu-intilishlari, quvonchu iztiroblarining badiiy bo‘yoqlarda jonli aks ettirilishi dunyo obrazining tasvir ko‘lamini yanada kengaytirdi.

Turkiy adabiyotda ham dunyo va uning badiiy tasviriga oid ifodalar ancha uzoq o‘tmishga ega. Eng qadimgi turk she’ri, xususan, moniylik she’riyatida dunyo “ajun” tarzida qo‘llangan. “Ajun”ga bog‘lanish, uning muvaqqat go‘zalliklariga aldanib, umrning dilbar damlarini sarf qilib yuborish bu she’rlarda keskin qoralangan. Masalan:

Biş ajuntaki tınıġlarıġ.

Biligsiz b[iligdin] öngi ödürtüngüz.

Bilge biligte yaratdingiz.

Fırnibrenke sanlıġ kıltingız¹⁸.

Mazmuni:

Besh olamning mavjudotlarin

Jaholatdan tortib oldingiz;

Ularga hikmat ato etdingiz

Parnirvanaga mansublardan qildingiz.

Parnirvana bu – nirvananing ikkinchi darajasi. Nirvana esa azobdan qutulish, baxt demakdir. Parnivana joy nomini emas, balki insonning xotirjamlikka erishgan baxtiyor holatini bildiradi. Bu o‘rinda u ilohiy olamga ishora qilib kelgan. “Ajun” – barcha

¹⁸ Решит Рахмети Арат. Эски турк шеъри. – Анкара, 1991. – С. 40. ² Кўрсатилган китоб. – Б. 46.

yovuzliklar, yaramasliklar, noqisligu nohaqliklarga makon. Undan ehtiyot bo'lib, inson o'zini, qalbu ruhini ihota qilmasa, bu makkor "Yirtinçke"ning domiga ilinishi ayon. Ma'lum bo'ladiki, dunyo moniylik she'rlarida Yirtinçke tarzida ham ifodalanadi:

Yirtinçke umuğ mağ törüttüngüz

Yiti ağıliğ nomlariğ nomlatıngız

Yintem ayığta yaratınțaçılariğ tıdtingız

Yig üstünki orlar turgurtu [nguz²]. Mazmuni:

Dunyoda umid va baraka bo'lish uchun yaratildingiz

Xazina to'g'risidagi yetti qonunni va'z qildingiz. Jonzotlarni yovuzlikda yashashdan saqladingiz:

Ular uchun eng yaxshi joylarni tayyorladingiz.

Yirtıcı so'zining ma'nosi yirtqichdir¹⁹. Bu so'z yovvoyi, shafqatsiz, qonxo'r ma'nolarini ham bildiradi. Yirtqich hayvondan yaxshilik kutib bo'lmaganidek, dunyo ham ezgulik maskani emas.

Turkiy yozma adabiyotda dunyo ma'nosini ifodalagan so'z ishlatilgan eng qadimgi manbalardan biri bu O'rxun-Enasoy yodgorliklaridir. Ularda V-VIII asrlarda yashagan turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati, turmush tarzi badiiy ifoda topgan. Dunyo haqidagi teran mushohadalar, jumladan, mana bunday yoritilgan:

Uza kok tangri asra yagıyız yar qyılıntuqta akin ara kisi og'ly qyılıntıms²⁰.

Ya'ni: Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda, ikkisining o'rtasida inson bolalari paydo bo'lgan.

E'tiborlisi, qadimgi turk she'rida dunyo aniq makon va zamon ma'nosida qo'llangan bo'lib, ularda ramziy ishoralar deyarli uchramaydi. Quyidagi misrada ham bu olam Tangri taoloning yaratig'i, deya talqin qilingan:

Od tangri yasar, kisi ogly kop oligli torumis²¹.

Ya'ni: dunyoni Tangri yaratadi, inson bolalari hammasi o'ladigan qilib yaratilgan.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, bitiktoshlarda dunyo, olam, jahon so'zlari umuman uchramaydi. Ulardagi fikr yo'sini, badiiy matn mazmunidan dunyo haqida so'z yuritilayotganini anglash esa unchalik qiyin emas. Masalan:

Alp arin ulurup balbal kыlu birtim²².

Ushbu misra "Qadimiyat obidalari" kitobida *Alp erini balbal qisdi²³* shaklida tabdil qilingan. Qadimda turkiy qavmlar qabrtoshlarni balballar, deb atashgani ma'lum. Biroq bu o'rinda balbal taqdir, qadar, dunyo ma'nolarini ham ifodalagan. "Kitobi Dada Qo'rqut"dagi dunyo bilan bog'liq paremiyalar ham yuqoridagilarga o'xshash. Ammo, karvon, foniy kabi istiora va epitelar dunyo obrazining mazmunini kengroq tafakkur qilishga yordam beradi.

Masalan:

Ular ham bu dunyoga keldi, ketdi,

¹⁹ Қаранг: Azərbaycan dilinin izahlı lüğeti. Dörd jildde I jild. – Bak: Şerq-Qerb, 2006. – S. 601.

²⁰ Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I жилд. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 49.

²¹ Кўрсатилган китоб. – Б. 57.

²² Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I-жилд. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 64.

²³ Қаюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 111.

*Karvon kabi qo'ndi, ko'chdi.
Ularni-da ajal oldi, yer gizladi.*

*Foniy dunyo yana qoldi, Kelmali-ketmali dunyo bu,
So'ng uchi o'limli dunyo bu²⁴.*

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda an'anaviylik va ta'sirni belgilashda g'oya, obraz, badiiyat kabi asosiy mezonlar bor. "Kelimli-ketimli dunyo" iborasi, insonga nisbatan qo'llangan karvon tashxisi dunyoni rabotga, karvonsaroyga o'xshatishga turtki bo'lgan, deyish mumkin. E'tiborlisi, ritorik savol – so'roq ohangi lirik qahramonning maqsad-muddaosini yanada ravshanlantirib, dunyo haqidagi hukmxulosani qat'iyilashtiradi:

*Qani deganim bek eranlar?
Dunyo o'zi meniki deganlar!
Ajal oldi, yer gizladi,
Foniy dunyo kimga qoldi?
Kelmali-ketmali dunyo bu!²⁵*

Gizlamoq – yashirmoq demakdir²⁶. Hamma ham oqibat ajal domiga tushadi, dunyodan ko'z yumgach, qabrga qo'yiladi. Yer gizladi – yer yutdi, yer yashirdi iborasi orqali o'limga, bu dunyoning o'tkinchiligiga ishora qilingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azərbaycan dilinin izahlı lüğeti. Dörd jildde I jild. – Bak: Şerq-Qerb, 2006. – S. 601.
2. Şemseddın Sami. Kamus-ı türki. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2019. – S. 391.
3. Китоби-Дада Қўрқут. Тарж. Бобоҳон Муҳаммад Шариф. – Боку: Нусха, 2022. – Б. 31.
4. Қажумов А. Қадимият обидалари. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б III.
5. Раҳмонов Н. Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. I жилд. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 49.
6. Решит Раҳмети Арат. Эски турк шеъри. – Анкара, 1991. – С. 40.

²⁴ Китоби-Дада Қўрқут. Тарж. Бобоҳон Муҳаммад Шариф. – Боку: Нусха, 2022. – Б. 31.

²⁵ Кўрсатилган китоб. – Б. 48.

²⁶ Şemseddın Sami. Kamus-ı türki. – Ankara: Türk Dil Kurumu, 2019. – S. 391.